

O‘ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Choriyev Abdiqayim Qodirovich - Termiz Davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

Noriyeva Sevinch Akbar qizi - Termiz davlat universiteti talabasi

Sherboyeva Qizlarbek Shoirovna - Termiz davlat universiteti , talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuv xususiyatlari, ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni va tarkibiy dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) va tog‘-kon sanoati kabi yetakchi sektorlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda tarkibiy transformatsiyasi o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakat sanoat xabrlarining hududlararo muvozanatini ta‘minlashda yo‘naltirilayotgan xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimi tahlil qilinib, sanoat geografiasini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishga "yashil" texnologiyalarni joriy etish hamda hududiy nomutanosiblikni kamaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmoqlari, iqtisodiy geografiya, ishlab chiqaradigan sanoat, investitsiya oqimi, tarkibiy o‘zgarishlar, hududiy mutanosiblik, diversifikatsiya, iqtisodiy ahamiyat.

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF INDUSTRIAL PRODUCTION IN UZBEKISTAN

Choriyev Abdiqayim Qodirovich – Senior Lecturer, Termez State University,
Uzbekistan

Noriyeva Sevinch Akbar qizi – Student, Termez State University, Uzbekistan

Sherboyeva Qizlarbek Shoirovna – Student, Termez State University,
Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the territorial distribution of industrial sectors in the Republic of Uzbekistan, their role in the development of the national economy, and their structural dynamics. The study examines the contribution of

leading sectors, including the manufacturing and mining industries, to the gross domestic product and explores their structural transformation. In addition, the flow of domestic and foreign investments aimed at ensuring regional balance among the country's industrial centers is analyzed. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to further diversify the geography of industry, promote the introduction of green technologies into industrial production, and reduce regional disparities.

Keywords: industrial sectors, economic geography, manufacturing industry, investment flows, structural changes, regional balance, diversification, economic significance.

O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi. Mustaqillik yillarida sanoatni modernizatsiya qilish, hududiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va xomashyoni chuqur qayta ishlashga ustuvor ahamiyat berildi. Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi tabiiy resurslar, infratuzilma va mehnat resurslari bilan belgilanib, hududlarning muayyan tarmoqlarga ixtisoslashuviga olib kelgan. Bu esa mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning strategik joylashuvga ega bo‘lgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Uning tabiiy resurslarga boyligi, qulay transport-geografik o‘rni va mehnat resurslarining yetarliligi sanoat tarmoqlarining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida sanoat sektori yetakchi o‘rinlardan birini egallab, yalpi ichki mahsulot (YIM) o‘shishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston sanoatining hududiy rivojlanishi va tarmoq tarkibi so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat tarmog‘ining ulushi o‘rtacha 25–27 foizni tashkil etib, uning milliy iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rnini

tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha taqsimlanishi notekis xususiyatga ega. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati respublika sanoat mahsulotining qariyb 25–30 foizini ishlab chiqarib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Mazkur hududlarda mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo hamda yengil sanoat tarmoqlari nisbatan yuqori darajada rivojlangan bo'lib, poytaxtning yirik iqtisodiy va infratuzilmaviy markaz sifatidagi mavqei bunda muhim omil hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlarining tarkibiy ulushi. Respublika sanoatining tarkibiy tuzilishi xalqaro tasniflagichlarga muvofiq to'rtta asosiy tarmoqqa ajratiladi. Ularning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Qayta ishlash sanoati sanoatning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mazkur tarmoqda 947,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, uning jami sanoat hajmidagi ulushi 86,0 foizni tashkil etadi. Qayta ishlash sanoati tarkibida metallurgiya (32,0 foiz) hamda to'qimachilik va tikuvchilik sanoati (17,5 foiz) eng yuqori ulushga ega bo'lgan yo'nalishlar sifatida ajralib turadi.

Tog'-kon sanoatida 77,0 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, bu umumiy sanoat hajmining 7,0 foiziga tengdir. Ushbu tarmoq mamlakatning strategik resurslar bilan ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Xususan, bir yil davomida 42,3 milliard kub metr tabiiy gaz qazib olinishi uning respublika energetik xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Elektr energiyasi, gaz bilan ta'minlash va havoni kondensatsiyalash tarmog'i hissasiga 70,8 trillion so'mlik mahsulot to'g'ri kelib, bu jami sanoat ishlab chiqarishining 6,4 foizini tashkil etadi.

Sanoatning hududiy joylashuvi va konsentratsiyasi. Sanoat quvvatlarining hududiy joylashuvi mamlakatning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, xomashyo resurslari, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotlarining qariyb yarmi uchta yirik hudud hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, Toshkent shahri 207,3 trillion so'mlik sanoat mahsuloti

bilan eng yirik iste'mol va qayta ishlash markazi hisoblanadi. Navoiy viloyatida 195,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, u kon-metallurgiya va kimyo sanoatining tayanch hududi sifatida ajralib turadi. Toshkent viloyati esa 170,3 trillion so'mlik ishlab chiqarish hajmi bilan og'ir sanoat, energetika va metallurgiya tarmoqlarining muhim markazi hisoblanadi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari bo'yicha Namangan (110,8 foiz) va Xorazm (110,7 foiz) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Mazkur holat mamlakatda sanoat quvvatlarini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish, iqtisodiy faollikni yangi hududlarga yo'naltirish hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Korxonalar demografiyasi va texnologik tarkibi. Hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 59,8 mingtaga yetgan. Ularning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (20,2 foiz), qurilish materiallari sanoati (14,4 foiz) hamda kiyim-kechak ishlab chiqarish (10,3 foiz) tarmoqlarida jamlangan. Shu bilan birga, sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda uning tarkibiy jihatdan takomillashuvi, xususan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari ulushining ortib borishi va tayyor sanoat mahsulotlari eksporti hajmining kengayishi muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar mamlakat sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlariga kapital qo'yilmalarning bunday yuqori sur'atlarda o'sishi mamlakatda ishlab chiqarishning hududiy nomutanosibligini yumshatishga xizmat qiladi. Investitsiyalar ko'magida chekka hududlarda yangi sanoat korxonalari va maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi, xomashyo bazasidan samarali foydalangan holda sanoat geografiasini yanada kengaytirishga keng zamin yaratmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda sanoatning xomashyo yo'nalishidan qayta ishlashga asoslangan modelga o'tayotganini ko'rsatdi. Sanoat

korxonalarining hududlar bo‘ylab kengayishi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Investitsiyalar asosan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilmoqda. Kelgusida sanoat zonalari va klasterlarni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalarni keng qo‘llash hamda innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oqilona hududiy joylashtirish va samarali investitsiyalash O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘shining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom Toshkent. O‘zbekiston. 2017.
2. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi. T.: “Mumtoz so‘z”. 2010.
3. Egamberdiyeva U. T. Sanoat geografiyasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Donishmand ziyosi" nashriyoti, 2020. – 234 b.
4. Soliyev A. S. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: Universitetlar uchun darslik. – Toshkent: Universitet, 2014. – 412 b.
5. Mamajanov M., Tojiyeva Z. N. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: Darslik. – Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2019. – 356 b.
6. Vahobov H., Ro‘ziyev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent nashriyoti, 2010. – 254 b.